
Tashabbuskor yoshlar tashabbusi



Tashabbuskor yoshlar tashabbusi

Istiqlolimizning 29-yillik to'yi arafasida O'zbekiston yoshlar ittifoqi Sux tumani Kengashi tomonidan "Tashabbuskor yoshlar" aksiyasi doirasida xayriya tadbirlari tashkil etilmoqda.

Tadbirlar doirasida tashabbuskor Suxlik yoshlar tumandagi yakka yolg'iz, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar, boquvchisini yo'qotganlar, hamda nuroniy va nafaqa yoshidagi faxriylar holidan xabar olish maqsadida ularning xonadonlariga bevosita tashrif buyurib, uy yumushlariga yaqindan yordam berishdi. Mo''tabar va aziz insonlarni bayram bilan tabriklab, tumandagi yoshlar yetakchilari va maktab sardorlari tomonidan esdalik sovg'alari topishirildi.

Yoshlarimizning bunday ezgu tashabbusidan nuroniy otaxonlari mo''tabar onaxonlarimiz qo'llarini duoga ochib, tashabbuskorlarga o'zlarining samimiy minnatdorchiligini izhor etishdi. Ayniqsa, bunday tashrif va sovg'alar imkoniyati cheklangan yoshlar uchun katta quvonch va xursandchilik baxsh etdi.